

Tipratikanoy

Ertak

Bor ekan-u yo‘q ekan, bir nozik Tipratikanoy bo‘lgan ekan. Uning barmoqlari nozik, sochlari quyuq, qoshlari terma, kipriklari kerma ekan. Sochlari jingalak bo‘lishini va ularga gulli sochbezaklar taqishni, yumshoqqina yostiqlarda uxlashni, qo‘llari hammanikidek silliq bo‘lishini xush ko‘rarkan. Biroq kulgi bo‘lishdan qo‘rqib, orzularini ro‘yobga chiqarishni o‘ylamas ekan. Shu bois o‘ziga katta orzuxona quribdi. Amalga oshmaydigan orzularini ana shu orzuxonaga tashlab qo‘yarkan. Orzuxonaning shifti osmonu falak, devorlari tog‘lar, darpardalari kamalak rangda ekan. Bu yerda bir-biridan chiroyli orzularqalashib yotarekan.

Kun kelib, Tipratikanoy maktabga boribdi. O‘qiy desa kitobi, yozay desa daftari teshilib ketaveribdi. Hatto o‘quv partalarining bo‘yoqlari ham tezda qirilib qolibdi. Bu Tipratikanoyga alam qilganidan kun uzoq o‘tirib yosh to‘kibdi. Ko‘zlarini ishqalayveribdi, ishqalayveribdi. Shundan qo‘llarini yara bosibdi, hamma yog‘i shilinibdi. Ustiga ustak, Tipratikanoy do‘stlari Quyonvoyninig oppoq postini-yu, Kapalakxonning harir libosiga havas qilarkan. U ham maktabga deb ipak kofta tiktiribdi, shoyi bo‘yinbog‘ olibdi. Biroq bir kun o‘tmay, shunday go‘zal liboslari sitilib-titilib ketibdi. Tipratikanoy faqat tikanlardan iboratligini o‘ylab, rosa o‘kinibdi. Axir boshqalar bilan qo‘l ushlashib o‘ynayman desa, tikanlari do‘stlarining qo‘llariga botganidan hech kim u bilan o‘ynashni xohlamas ekan. Siqilaverganidan ko‘z oldi qorong‘ilashib, ko‘ngli behuzur bo‘libdi. Tikanli po‘stini ko‘ziga xunukdan ham xunukroq ko‘rinibdi. Qolaversa, yangi olgan papkasini yelkasiga osib yurganidan hamma yog‘ida gul-gul teshikchalar paydo bo‘libdi. Endi u o‘quv qurollari va kitob-daftarini maktabga qolda olib borishga odatlanibdi. Biroq bunday yashash Tipratikanoyning dilini ranjitibdi. Yelkasidagi tikanlar yuragiga botayotganday his qilibdi o‘zini.

Ana o‘shanda nima bo‘libdi, deysizmi, u Tulkixonga duch kelibdi. Tulkixon unga katta, eng zamonaviy rusumdagi kompyuterni sovg‘a qilibdi. Kitob, daftar, o‘chirg‘ich-u chizg‘ichlar - hammasi o‘sha noutbukning ichida joylashgan ekan. Avvaliga Tipratikanoy Tulkixonning saxiyligiga ishonmabdi. Bu uning navbatdagi ayyorligi, deb taxmin qilibdi. Biroq Tulkixon do‘sti Tipratikanoyga hamma qatori yana maktabga qaytishni maslahat beribdi. Tikanlari ko‘kragiga botishiga qaramasdan, Tipratikanoyni mahkam bag‘riga bosibdi.

Shundan so‘ng u Tulkixonga ishonibdi. Suyunganidan ko‘zlaridan yosh quyilibdi. Iliq ko‘z yoshlardan tikanlari mayinlashib ketganini his qilibdi. Ilk marta yumshoqqina o‘rinda mazza qilib uxlab, tiniqib uyg‘onibdi. Orzuxonasida g‘ij- g‘ij yotgan orzularni qo‘lidan ushlab, ularni amalga oshirishga kirishibdi. Endi hech qachon tikanlari tufayli o‘kinib, o‘zini o‘zi kamsitmaslikka ahd qilibdi. Ertasi kuni Tipratikanoy qo‘lida yangi noutbuk va ustoziga atalgan go‘zal guldastani ko‘tarib, maktabga yo‘l olibdi.

Go‘zal Begim.

G‘uncha jurnali. 3-son.